



## RAQAMLI IQTISODIYOTDA ELEKTRON SHARTNOMALAR VA TARAFLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Umirbekov Sardorbek

Toshkent davlat yuridik universiteti hususiy huquq  
fakulteti talabasi

Telefon raqam: +998 94 354 60 00

E-mail: umrbekov\_1@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18028936>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 20-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 23-dekabr 2025 yil

### KEYWORDS

Raqamli iqtisodiyot, elektron  
shartnoma, smart-shartnoma,  
blockchain texnologiyasi,  
shartnoma xavfsizligi, elektron  
tijorat

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron shartnomalar va smart-shartnomalarning huquqiy tabiatini, ularning asosiy farqlari hamda taraflarning huquqlarini himoya qilish mexanizilari tahlil qilinadi. Taqdimotda normativ-huquqiy tahlil, qaqqoslash, doktranal yondashuv va amaliy misollar metodlardan foydalaniladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki elektron shartnoma an'anaviy shartnomalarga teng huquqiy kuchga ega bo'lib, ularning yuritish va iste'molchi huquqlarini himoy qilish mexanizimi yetarlich shakillanga.*

*Smart-shartnomalar blockchain texnologiyasiga asoslanga bo'lib, avtomatik bajarish xususiyati blan ajralib turadi, broq ularning huquqiy tartibga solinishi va nizolarni hal qilish jarayonida hozirch murakkabligich qolmoqda. Xulosa sifatida, raqamli iqtisodiyotda bu ikki turdagi shartomalarni huquqiy jihatdan uyg'unlashtirish va ularni xavfsizlik hamda ishonchlilik darajasini oshirish bo'yicha qo'shimch normativ mexanizimlarni ishlab chiqish zarurligi takidlanadi.*

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan huquqiy munosabatlar ham yangi shakilga ega bo'la boshladi. An'anaviy qog'oz shaklidagi shartnomalar o'rnini elektron shakildagi shartnomalar egallab bormoqda, blockchain texnologiyasi esa smart-shartnomalar kabi avtomatik bajariladigan kelishuvlarni yaratishga imkon beradi. Bu jarayonlar fuqorolik muomilasida qulaylik yaratgan bo'lsa-da taraflarning huquqlarini himoya qilish, shartnomalarining haqiqiyliigi va bajarish bilan bog'liq yangi masalalarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan elektron shartynomalar va smart-shartnomalarning huquqiy tabiati,<sup>1</sup> ularning farqlari va ularga qo'yiladigan talablarni o'rganish muhim ahamyatga ega.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.06.2016 yildagi 185-son:  
<https://lex.uz/docs/-2973939>

Raqamli iqtisodiyat global miqiyosda jadal rivojlandi, iqtisodiy munosabatlarning yangi shakillari, jumladan, elektron shartnomalarni paydo qildi. Bu shartnomalar savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda operatsyalarni soddalashtirib, samaradorlikni oshirmoqda. Biroq raqamli muhitda taraflarning huquqlarini ishonchli himoya qilish masalasi tobora doalzarb ahamyar kasb etmoqda. Bu, raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanish va ishtirokchilar o'rtasida ishonchni taminlash uchun muhim hal qiluvchi ahamyatga ega.

#### **Metodlar:**

Ushbu taqdimot turli metodik yondashuvlarning kombinatsiyasidan foydalaniladi maqsad- elektron shartnomalarva smart shartnomalarning huquqiy tabiyatini va taraflarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini aniq, ishonchli va takomillashtirilgan tarzda aniqlash, quyda qo'llangan merodlar ma'lumot manbalari ma'lumot yig'ish tartibi va tahlil usullari batafsil bayon eriladi.

#### **Metodlarning tavsifi va bosqichlari:**

1. **Normativ-huquqiy tahlil:** Tanlanga normativ hujjatlar mazmuni chuqur o'rganiladi, har bir norma bo'yicha ta'rif shartlar, amal qilishga doir va cheklovlar aniqlanib olinadi, normativ qarorlar bo'yicha tafsir usulida huquqiy meyorlarni real hayotga tadbiiq erish baholanadi. Shuningdek, huquqiy hujjatlarning bir birga mosligi va kamchilari aniqlanadi.

2. Taqqoslash: elektron shartnomalar va smart-shartnomalar yuridik va texnik xususiyatlari bo'yicha tizimli taqqoslash jadvali tuzildi, xalqaro yurisdiksiyalardagi yondashuvlar bilan solishtirilgan va O'zbekiston qonuni bilan aloqador xulosalar chiqarildi.

3. Doktrinal: huquqshunoslar va nazariy adabiyotlar tahlil qilindi. Doktrinal yondashuv huquqiy konsepsiyalar, terminalagiya va konseptual, asoslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Amaliy missollar: real hayotdagi missollar, e-commerce platformalarining shartnoma shablonlari blockchain asosidagi pilot loihalar va sudda ko'rilga shartnoma nizolar tanlab olindi.

Metodlarning tavsifi va bosqichlari: Normativ huquqiy tahlil- O'zbekiston respublikasi fuqorolik kodeksi, "elektron hujjat aylanish to'risidagi qonun, shuningdek,<sup>2</sup> xalqaro tajriba(UNCITRAL model qonunlari) o'rganiladi. Tanlangan normativ hujjatlar chuqur o'rganiladi, har bir norma bo'yicha ta'rif, shartlar, amal qilish dirosi va cheklovlar aniqlanib olinadi, normativ hujjatlar bo'yicha tafsir usulida huquqiy meyorlarni real hayotda tadbiiq etishi boholandi, shuningdek normativ hujjuatlarning bir biri bilan mosligi va kamchiliklari aniqlandi.

#### **Natijalar:**

Elektron shartnomalar an'naviy shartnomalarga nisbatan bir qator afzallikalarga ega : ular tezkorlikni geografik cheklovlarning yo'qligi va harajatlarni kamaytirishni taminlaydi. Biroq ular bilan bog'liq muomalar ham mavjud masalan, shartnoma taraflarning haqqoniyiligini tasdiqlash, malumotlar xavfsizligi va shartnoma tuzilish holatida yuridik kuchni taminlash. Ko'p mamlakatlarda elektron shartnomalar buzilish yuridik maqomini tan olish bo'yich qonunchilik asosida yaratilgan bo'lsa-da ularni amalyotda to'g'ri qo'llash va tartibga solish doimiy etborni talab qiladi. Shartnomani tuzish jarayonining shaffofligi va uning mazmuning o'zgarmasligi muhimdir.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2004 yildagi 611-II-son <https://lex.uz/docs/-165079>

Taraflarning huquqlarini hioya qilish uchun bir qator mexanizmlar joriy etilmoqda. Bularga elektron raqamli imzo (ERI) texnologiyalari, malomotlarni shifirlash va kiberxafvsizlik joralari kiradi. ERI taraflarning shaxsini tasdiqlash va butunligini taminlashda asosiy vosita hisoblanadi. Butun, tashqi nizolarni hal etish mexanizmlari shu jumladan onlyn arbitraj va sud tizimini raqamli muhitga moslashtirish zarur. Iste`molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilga qonunchilik normalari raqamli savdoda asosiy o`rin tutadi. Platformalar va xizmat ko`rsatuvchilarning ma`sulyatini oshirilishi, shuningdek shartoma shartlarini aniq va tushunilarli bo`lishini taminlash kerak.

Elektron shartnoma ta`rifi va hususiyatlari : Elektron shartnoma- raqamli shakilda tuziladigan, elektron imzo bilan imzolanadigan huquqiy kelishuv, u an`naviy shartnoma bilan bir hil kuchga ega, elektron shartnomada taraflarning huquqlari qonun bilan himoya qilnadi masalan: shaxsning malumotlari daxilsizligi, shartnoma haqida to`liq axborat olish huquqi, nizolarni sud yoki arbitraj orqali hal etilishi yaqqol namuna.

### **Smart-shartnomalarning xususiyatlari:**<sup>3</sup>

Smart-shartnomalar-blockchain asosida tuziladigan va shartlar bajariladigan avtomatik ishlaydigan ko`dlangan kelishuv, unda inson aralashuvi minimal, taraflarning o`rtasidagi majburiyatlar "agar unda "algoritmlar orqali bajariladi, smart-shartnomalar o`z-o`zidan bajarilganligi uchun sud orqali to`htatib turish, o`zgartirish yoki bekor qilish qiyin. Elektron shartnomalar va smart-shartnomalar o`rtasidagi farqlar mezoni quydagicha:<sup>4</sup> huquqiy shakliga ko`ra, huquqiy matn va kod ko`rinishida algoritm, bajarilishiga ko`ra: odam tarafidan va avtomatik, elektro shartnomani o`zgartirish mumki lekin smart shartnomani o`zgartirib bo`lmaydi, tasdiqlanishi esa elektron shartnomani elektron elektron imzo bilan, smart-shartnomani bolckchain orqali, natijalar shuni ko`rsatadiki har ikki turdagi shartnomalar iqtisodiyot uchun muhim, ammo ularni yuritish tartibi va huquqiy mexanizmlar bir-biridan keskin farq qiladi.

Elektron shartnomalarning huquqiy asoslari va xususiyatlari: tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, elektron shartnomalar O`zbekiston, Yevropa Ittifoqi va boshqa yirisdiktsiyalarda an`naviy shartnomalar bilan teng huquqiy kuchga ega. Elektron shartnomalar elektron imzo bilan tasdiqlanganligi sababli hukumatiy organlar ularni haqiqiy shartnoma sifatida tan oladi.

Elektron shartnomalarda barcha amallar(kritish, o`zgartirish, imzolash, elektron imzo orqali qayd etiladi, bu nizolar vaqtida muhim ahamyatga ega. Elektron shartnoma iste`molchilar huquqlarini himoya qiluvchi maxsus normalar bilan tartibga solinadi:<sup>5</sup> huquqiy malumotni to`liq olish, shartnoma berishdan oldin ma`lumot berish, bekor qilish tartibi, ma`lumot xafvsizligi kafolatlari natijalar shuni ko`rsatadiki elektron shartnoma huquqiy nuqtai nazardan nisbatan xafvsiz nazorat qilinadigan nizolar uchun mos huquqiy mexanizmlarga ega insitutdir.

<sup>3</sup> <https://yuz.uz/uz/news/smart-shartnomalar-haqida>

<sup>4</sup> "Elektron tijorat to`g`risida"gi Qonunning mohiyati va ahamiyati (O`RQ-792-son, 29.09.2022-y.)  
<https://akkred.uz/news/362>

<sup>5</sup> O`zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son <https://lex.uz/ru/docs/-4704>

Smart-shartnomalarning o'ziga hos xususiyatlari: tadqiqot smart-shartnomalar (blockchain asosidagi avtonatik shartnomalar)ning huquqiy emas texnik tabiatga ega kanligini va mavjud shartnoma huquqi bilan to'liq muvofiqlashmaganligi aniqlandi. Smart - shartnoma matindan emas balki kodlardan iborat. Bu ularni tez va aniq bajariladigan qiladi, biroq huquqiy sharhlashni qiyinlashtiradi. Smart - shartnomalar kod ishga tushganda so'ng, uni to'htatish, bekor qilish, yoki o'zgartirish deyarli imkonsiz (blockchain o'zgarmasligi - immutable xususiyati) agar kodda xatolik bo'lsa, kim javobgar bo'lishi - ishlab chiqaruvchi, platforma, yoki foydalanuvchi - amalyotda hamon aniq belgilanmagan. Smart - bank xizmatida, mobil ilovalarda, amalyotda barcha nizolarni yuridik yo'l bilan hal qilish mumkin. Smart-shartnomalar asosiy kripto-loyihalar DeFi, NFT, takomillashtirishda qo'llaniladi. Real hayotda keng tadbiiq qilishi uchun huquqiy baza yetarlic keng rivojlanmagan. Elektron shartnomalar-huquqiy barqaror model, smart- shartnomalar texnik inovatsion modeldir. Ular bir-birini to'ldirish mumkin almashtira olmaydi, smart - shartnomalar kelajakda huquqiy jihatdan moslashtirilsa, ular qo'llanishi ancha kengayadi.

#### **Muhokama:**

Tadqiqot natijalari elektron shartnomalar va smart - shartnomalarning raqamli iqtisodiyotdagi o'rnini, ularning afzalliklarini cheklovlarini hamda huquqiy muommolarini chuqur anglashga imkon beradi. Quyda ikki turdagi shartnomalarning huquqiy amalyotdagi tasiri ularni qo'llshda real xavflar va kelajakdagi ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlari izohlanadi.

Elektron shartnomalar huquqiy jihatdan yetarlic shakillangan insitit hisoblanadi. Ular an'anviy qog'oz shartnomalarning barcha funkisylarining elektron muhitda takrorlaydi va ko'plab qulayliklar yaratadi: 1. Yuridik aniqlik va barqarorlik- elektron shartnomalar aniq belgilangan va sudlar tarafidan muntazam qo'llanib kelinadi. Bu hujjat kuchi haqiqiyligi va majburiyligi yuzasidan shubhalarni kamaytiradi. 2. taraflar huquqlarining keng himoyasi: Ular ma'lumotlarni himoya, iste'molchilar huquqlari, shartomalarni bekor qilish va nizolarni hal qilish bo'yicha aniq belgilanga tartiblarga ega. 3. amalyotga moslashuvchanlik: elektron shartnomalar oson o'zgaruchanligi, bekor qilinishi va elektron imzoni qayt etilishi ularning ishonchiligi va qulayligini oshiradi.

Shu bilan birga elektron shartnomalar inson xatosiga yoki adivakatga nisbatan qarshi smart-shartnomalarga qaraganda ko'proq davlat nazorati va sud himoyasi bilan taminlanadi.

Smart-shartnomalarning huquqiy noanilikalari va texnik cheklovlar:<sup>6</sup>

Smart-shartnomalar texnologik yutuq bo'lsada, ularning huquqiy maqomi ko'plab davlatlarda to'liq aniqlanmagan, tahlil quydagilarni ko'rsatadi: 1. kodni qonun sifatida talqin etish, smart-shartnoma kod sifatida talqi etilganligi uchun huquqiy tilda ifodalanmagan, sud tarafida talqin qilish qiyin, koddagi kichik hatto ham shartnomaga salbiy ta'sir ko'satadi, bu esa kodlar aslida qonunmi dega fundamental savollar keltirib chiqaradi.

Avtomatik bajarilish nazoratsizligi: Blockchain o'rganuvchan tizim bo'lmaganligi uchun smart-shartnoma ishga tushgach uni to'htatish yoki o'zgartirish qiyin, shartnoma adolatsiz

---

<sup>6</sup> MDHDA Smart shartnomalarning huquqiy tartibi:

<https://library-tsul.uz/ru/mdhda-smart-shartnomalarning-huquqiy-tartibi/>

bo'lsa ham uni bajarishi mumkin, xatolik avtomatik ravishda noto'g'ri tranzaksiyalarni amalga oshirish ehtimoli mavjud.

Javobgarlik masalasini noaniqligi: Bu eng dozarb masaladir agar smart-shartnomada kod xatosi bo'lsa - programmis, firibgarlik bo'lsa - foydalanuvchi, tehnik nosozlik bolsa - platforma huquqiy javobgarni aniqlash hozirch noaniq. Sud tizimi toyyor emasligi: an'anaviy sudlar kodni bajarilishini o'zgartira olmaydi. Bu nizolarni hal qilish qiyinlashtiradi, shartnoma avtomatik ishlagach, sud qarori kechiktirib holatini kuchaytiradi. Bu holatda smart - shartnomalar keng joriy etishda huquqiy islohotlarning zarurligini ko'rsatadi.

Elektron va smart-shartnomalar o'rtasidagi kombitatsion yondashuv zaruriyati<sup>7</sup>: Tadqiqod shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki turdagi shartnomlar bir-birini to'ldirish mumkin. Ideal model sifatida quydagilar tavsiya etiladi: Elektron shartnoma - huquqiy emas shartnoma matni taraflar o'rtasidagi kelishuv, majburiyatlar huquqlar va nizolarni hal qilish tartibi elektron shakilda huquqiy asos bo'lib qolish lozim.

Smart - shartnoma: texnik ijro texnik bajarilishi (to'lov, tasdiqlash, avtomatik jarimalar) smart - shartnoma orqali amalga oshirish mumkin, bu model: huquqiy xavfni kamaytiradi, avtomatlashtirilgan jarayonning afzalliklarini saqlab qoladi, himoya mexanizmlarini kuchaytiradi.

Kelajakni tartibga solish ehtiyoji. Smart - shartnomaning keng joriy etilishi uchun keng huquqiy islohotlar talab etiladi, ko'p davlatlarda bu hali mavjud emas. Ko'nding huquqiy talqini bo'yicha standartlar yaratish normativ hujjatlar orqali kod hatosi nima, kim javobgar, nizolar qanday ko'riladi bergilab qo'yilishi zarur.

Texnik xavfsizlik standartlarini joriy etish. Smart - shartnomalar uchun audit, sinov va serifikatlash jarayoni majburiy bo'lish mumkin.<sup>8</sup>

#### **Xulosa:**

Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron shartnomalar va smart - shartnomalarning o'zni funksional imkoniyatlar va huquqiy shakillanish darajasi tubda farqlanishini ko'rsatadi. Olinga natijalar shuni isbotlaydiki, elektron shartnomalar huquqiy jihatda yetarlicha rivojlangan amalyotda keng qo'llaniladigan va tartibga solish mexanizmlari shakillangan insitut sifatida bugungi fuqorolik muomilasida muhim ahamiyatga ega. Ular taraflar huquqlarini himoya qilishda ham ishonchli, chunki elektron imzo, elektron hujjat aylanishi va iste'molchi huquqlariga oid qonunlar orqali ular to'liq himoyalangan.

Smart - shartnomalar esa inovatsion texnologiyalarga asoslangan bo'lib yuridik tizim va iqtisodiy munosabatlar yangi imkoniyatlar taqdim etadi.<sup>9</sup> Avtomatik ijro, blockchaining

<sup>7</sup> <https://new.civil.uz/2024/12/31/smart-kontraktlar-kelajakdagi-huquqiy-kelishuvlar/>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.12.2008 yildagi 271-son : <https://lex.uz/ru/docs/-1413931>

<sup>9</sup> About LexisNexis Privacy Policy Terms & Conditions Copyright © 2020 LexisNexis

o'zgarasligi, shaffoflik va inson omillari kamayishi ularning jozibadorligini oshiradi. Biroq ular qonuniy jihatdan hali to'liq rivojlanmagan, ayniqsa nizolar hal qilish, kod hatolar uchun javobgarlik, shartlar bekor qilish yoki o'zgartirish jarayonida jiddiy bo'shliqlar mavjud. Bu esa smart - shartnomalar keng qo'llanishi uchun huquqiy baza, texnik standartlar va davlat tomonida aniq tartibga solish mexanizimlari ishlab chiqishni talab etadi. Umman olganda raqamli iqtisodiyotda sharoida shartnomaviy munosabatlarni modernizatsiya qilish taraflar huquqlarini himoya qilish va raqamli xavfsizlikni taminlash bo'yicha tizimli yondashuv hal etilmoqda. Bu jarayonni muvoffaqiyati esa texnologiya va huquning uyg'un rivojlanishiga, davlat siyosatini izchilrigiga hamda biznes va jamiytaning raqamli madanyatiga bog'liq. Shunday ekan elektron va smsart - shartnomalar kelajakda fuqorolik muommosini yanada shaffof, tez va xavfsiz qilishda muhum o'rin tutishi shubhasiz

**Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.06.2016 yildagi 185-son: <https://lex.uz/docs/-2973939>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2004 yildagi 611-II-son <https://lex.uz/docs/-165079>
3. <https://yuz.uz/uz/news/smart-shartnomalar-haqida>
4. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunning mohiyati va ahamiyati (O'RQ-792-son, 29.09.2022-y.): <https://akkred.uz/news/362>
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son <https://lex.uz/ru/docs/-4704>
6. MDHDA Smart shartnomalarning huquqiy tartibi: <https://library-tsul.uz/ru/mdhda-smart-shartnomalarning-huquqiy-tartibi>  
<https://new.civil.uz/2024/12/31/smart-kontraktlar-kelajakdagi-huquqiy-kelishuvlar/>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.12.2008 yildagi 271-son: <https://lex.uz/ru/docs/-1413931/>
9. | About LexisNexis | Privacy Policy | Terms & Conditions | Copyright © 2020 LexisNexis